

1-nazorat ishi**Yaproqlardan dinozavr**

Juda uzoq yillar oldin sayyoramizda ajoyib mavjudotlar – **dinozavrlar** yashagan. Bugun biz ularni tasavvurimiz va tabiiy materiallar yordamida gavdalantrishimiz mumkin. Kuzda biz turli shakl va rangdagi yaproqlarni to'playmiz. **To'g'ri quritilgan barglarni qirqish va yelimlab yopishtirish orqali turli shakl hamda tasvirlar yaratish mumkin.**



Ushbu dars – **nazorat darsi**. Unda siz mustaqil ravishda kerakli detallarni tanlash, topshiriqni to'g'ri bajarish va ishni oxiriga yetkazish borasida o'z mahoratingizni ko'rsatishingiz kerak. Bugun har biringiz **yaproqlardan dinozavr** yasaysiz.

Sizga kerak bo'ladi:

- ko'k rangli karton;
- flomasterlar;
- kuzgi yaproqlar;
- yelim;
- qaychi.

Ish rejasi:

1. **Dinozavrning tanasi** uchun katta yaproq tanlang. Uni karton qog'ozning o'rtasiga yopishtiring. Boshqa rangdagi yaproqlardan **tepaliklar** yasang.
2. **Bosh** va **bo'yinni** qirqib oling. Ularni tanaga yopishtiring.
3. **Oyoqlarni** ham qirqing. Oyoqlar uchun to'rtta kichik yaproqcha oling. Ularni tananing pastki qismiga: ikkitasini oldiga, ikkitasini orqasiga yopishtiring.
4. Bir nechta mayda yaproqlarni olib, ularni uning orqa qismi bo'ylab yopishtiring – bu dinozavrning **taroqsimon toji bo'ladi**.
5. Ko'zini ham yopishtiring.



1



2



3

